

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Kamabag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirligi
Jamoatchilik kengashi raisi

B.Umurzakov
2023-yil 18-iyul

**O‘zbekiston Respublikasi Kamabag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi Jamoatchilik Kengashi yig‘ilishi
Bayoni № 1**

2023-yil 18-iyul

Toshkent shahri

Raislik qildi:

B.Umurzakov - Jamoatchilik kengashi raisi

Ishtirok etdi:

Jamoatchilik kengashi a’zolari, vazirlik markaziy apparati tuzilma rahbarlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

KUN TARTIBI:

**2023-yilning birinchi yarim yilligida bandlik bo‘limlariga murojaat qilgan
shaxslarni ishga joylashtirishga ko‘maklashish bo‘yicha
ko‘rsatilayotgan xizmatlar holati to‘g‘risida**

(Umurzakov, Xodjayeva, Marufova, Turdiyev, Xojakbarov, Kuchkarov, Umurzakov)

Yig‘ilishni O‘zbekiston Respublikasi Kamabag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Jamoatchilik Kengashi raisi B.Umurzakov olib berdi va jamoatchilik kengashi a’zolarini kun tartibiga qo‘yilgan masala bilan tanishtirdi.

Yig‘ilish kun tartibidagi **masala** yuzasidan, vazirlik markaziy apparati Aholi bandligi boshqarmasi boshlig‘i T.Maxmudovni axboroti tinglandi.

Jumaladan, 2023 yilning 1 iyul holatiga bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari tomonidan **370,6 ming** nafar fuqarolarga, shundan **228,7 ming** (61,7%) ayollar va **116,7 ming** (31,5%) yoshlarga **bandlik sohasidagi xizmatlar** ko‘rsatilganligi qayd etildi.

Murojaat qilgan fuqarolarning **190,5 ming** nafari korxona va tashkilotlarda mavjud bo‘sh ish o‘rinlarga ishga joylashtirildi. Shundan **106,1 ming** nafari (55,7 %) ayollar va **55,0 ming** nafari (28,9 %) yoshlarni tashkil etadi.

67,6 minga yaqin ishsiz fuqarolar turli yo‘nalishlarda vaqtinchalik haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi hamda ularning ish haqqi to‘lovi uchun Jamoat ishlari jamg‘armasi hisobidan **54,8 mlrd.so‘m** mablag‘ moliyalashtirib berildi.

646 ta ish beruvchi va tadbirkorlik sub’ektlariga **2,3 mingga** yaqin ishsiz fuqarolarni ishgaga qabul qilganligi uchun, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **4,9 mlrd.so‘m** subsidiya mablag‘lari ajratildi.

Murojaat qilgan **20,1 mingga** yaqin ishsiz fuqarolarga ishsizlik nafaqasi tayinlanib, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **33,8 mlrd.so‘m** mablag‘ ajratilgan.

46,8 ming nafar fuqarolarga mehnat huquqi va ishgaga joylashtirish imkoniyatlari haqida axborot va maslahatlar berildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida jami **646 ta** ish beruvchilarga **2 267** nafar fuqarolar uchun **4 ta** yo‘nalishda (*kvotalangan ish o‘rinlaridan ortiq miqdorda, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishgaga qabul qilgan, ish o‘rinlari va sharoitlarini nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirgan hamda kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan fuqarolarga asbob-uskunalar xarid qilib berish xarajatlari uchun*) Bandlikka ko‘maklashish Davlat jamg‘armasi hisobidan **4,9 mlrd.so‘m** miqdorida subsidiya mablag‘lari ajratildi.

Kun tartibida ko‘tarilgan masalalar yuzasidan, vazirlik jamoatchilik kengashi yig‘ilishi

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan Kamabag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Ahol bandligi boshqarmasi boshlig‘i T.Maxmudovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Jamoatchilik kengashi a’zolari tomonidan yig‘ilishda aholi bandligini ta’minalash bo‘yicha bildirilgan fikr-mulohazalar taklif sifatida tayyorlanib taqdim etilsin.
3. Jamoatchilik kengashining o‘tkazilgan yig‘ilishi vazirlikning rasmiy veb-saytida yoritilishi ta’mnlansin.

Bayonlashtirdi:

J.Xojiakbarov